

## O'ZBEKISTONDA KASHTACHILIK SAN'ATINING KELIB CHIQISHI

**Tulavboyeva Bahoroy Avalbekovna**

*Kamoliddin Bexzod nomidagi*

*Milliy rassomlik va dizayn institute 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada, o'zbek xalqining dunyoga tanilgan mohir ustalari mahoratida mujassam bo'lgan kashtachilik san'ati va ular yaratgan milliy matolardagi rang-barang kompozitsiyalar, jilolar uyg'unligi va asrlar davomida shakllanib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan ushbu san'at turi nafosati, ko'lami va mahalliy maktablar xilma-xilligi xususida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kashtachilik, milliy mato, so'zana, zardevor, belbog', milliy meros, kompozitsiya, amaliy san'at, tarixiy taraqqiyot.*

*Ilmdan bir shula dilga tushgan on, Shundan bilursankim ilm bepayon.*

**Firdavsiy.**

Kashtachilik san'ati insoniyat tarixida eng qadimiy va keng tarqalgan amaliy san'at turlaridan biri bo'lib, u nafaqat maishiy ehtiyojni qondirish, balki badiiy did, estetik qarashlar va milliy madaniyatni ifodalash vositasi sifatida shakllangan. Matoning yuzasiga turli iplar, ipak, jun, oltin va kumush simlar yordamida naqsh solish an'analari ming yillar davomida rivojlanib, bugungi kunda o'zbek xalqining ma'naviy merosida alohida o'rin egallaydi.

“Kashta” atamasi fors-tojik tilidagi “kashida” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “tortmoq”, “tikmoq” ma'nolarini anglatadi. Bu esa kashtachilikning asl mohiyati ipni mato uzra o'tkazish orqali badiiy shakl yaratish jarayonini ifodalaydi.

Kashtachilikning qadimiy ildizlari shundan dalolat beradiki, arxeologik topilmalar kashtachilik san'ati Markaziy Osiyo hududida juda ilk davrlardan boshlab mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Qadimgi qoya rasmlarida kiyimlar bezagi, o'ymakor naqshlarning dastlabki ko'rinishlari uchraydi. Ba'zi manbalarda aytilishicha, ilk kashta tikish usullari eramizdan avvalgi ming yilliklarga borib taqaladi. O'sha davrda odamlar kiyim-kechakni mustahkamlash va bezash maqsadida ip o'tkazish orqali dekorativ shakllar yaratgan. Keyinchalik kashtachilik nafaqat maishiy ehtiyoj, balki marosim, urf-odat va ramzlar tizimiga bog'liq holda shakllangan san'at turiga aylandi. Har bir naqshning o'ziga xos ma'nosi bo'lib, uni tikkan ayolning ichki kechinmasi, dunyoqarashi va ma'naviy ruhiyati unda aks etgan.

Kashtachilik buyumlari va ularning madaniy ahamiyati haqida so'z yuritar ekanmiz, asrlar davomida kashta ishlangan buyumlar xalq hayotining ajralmas qismiga aylanganligini ko'ramiz. Uy-ro'zg'or buyumlari sochiqlar, dasturxonlar, yostiq jildlari, ko'rpacha jildlari, to'r hoshiyalari, peshbandlar, shuningdek kiyim-kechak, milliy liboslar, bosh kiyimlar ham kashtalar bilan bezatilgan. Ayniqsa, kelin salomida, bola tug'ilishida, bayramlarda,

mehmondorchilikda sovg'a-salomlar uchun tikilgan maxsus buyumlar, mehmondorchilik uchun tayyorlangan bezakli matolar o'ziga xos badiiy ko'rinishlarga ega bo'lgan. Zero kashta qadimdan uy bezagi, maishiy buyum, marosim an'anasi, sovg'a-salom ramzi, ayollarning didi va mahoratini ko'rsatuvchi san'at sifatida qadrlangan. Shuningdek, kashta tikish ko'plab hududlarda ayollar uchun mehnat va daromad manbai sifatida ham muhim rol o'ynagan. Bugungi kunda esa u nafaqat an'anaviy meros, balki zamonaviy dizayn va moda sanoatida ham o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda.

Kashta tikish jarayoni oddiy tikuv emas, balki estetik tafakkur, tasavvur, rang tuyg'usi va sabr-toqatni birlashtirgan ijodiy mehnatdir. Har bir naqshda ayolning oilaga bo'lgan mehr-muhabbati, ro'zg'or barakasi haqidagi tasavvuri, tabiatga bo'lgan munosabati mujassam bo'lib, bunda hunarmandning har bir ishga kompozitsion yondashishi talab etiladi. Shunadagina natija tomoshabinlarga estetik zavq bag'ishlaydi. XIV-XV asrlarga oid manbalar va miniatyuralarda ham kashtachilik namunalari keng miqiyosda uchratishimiz mumkin. Jumladan, Amir Temur saroyida yashagan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo o'z esdaliklarida saroyda kashta bezaklarini tomosha qilganini yozgan. Behzod "Zafarnoma" qo'lyozmasiga ishlagan "Temur taxtda" miniatyurasida (1467) kashtali chodirni ham aks ettirgan[1]. Aytishimiz mumkinki, o'zbek kashtachiligida har bir mintaqa o'zining ranglar uyg'unligi, kompozitsiya qurilishi va naqsh ritmiga egadir. Masalan: Buxoro va Nurota kashtalarida "iroqi", "zanjira", "bodom" kabi murakkab kompozitsiyalar ustun. Farg'ona vodiysi kashtalarida yorqin ranglar, o'simliksimon va geometrik naqshlar ko'p uchraydi, Qashqadaryo va Surxondaryo an'alarida "guli pista", "chashmi bulbul" kabi qadimiy tasvirlar keng tarqalgan. Bu uslublar mahalliy aholining tabiatga bo'lgan qarashi, iqlim sharoiti, madaniy an'analari bilan chambarchas bog'liq.

Kashta choklari, kashta tikish va uslublarining turli-tumanligi o'zbek kashtado'zlarining katta san'atidan dalolat beradi. Masalan Nurota, Buxoro, Samarqand kashtado'zlik mahsulotlari ko'proq yo'rma chok bilan, Shahrisabzda yo'rma, kandaxayol, iroqi, Toshkentda esa ko'proq bosma chok bilan tikilgan. Ijtimoiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar kashtado'zlik an'alariga, mahsulotning turlariga ta'sir ko'rsatgan[2]. Har bir usul maxsus ip tanlash, mato turlari, tikish tezligi va naqsh qurilishi bo'yicha farqlanadi. Nafaqat texnika, balki rang tanlovi, kompozitsiya, simmetriya, ritm kabi badiiy tushunchalar ham kashtachilikda alohida o'rin egallaydi. Shu bois kashta san'ati ayollarning estetik qarashlarini, ijodiy tafakkurini, nozik didini shakllantirgan muhim maktab bo'lgan.


Har bir kashta nusxasida o'tmish avlodlar didining nafisligi, qo'l mehnatining beqiyos nozikligi o'z aksini topgan. Asboblar kashta tikayotgan hunarmandning eng birinchi yordamchisi hisoblanadi. Kashta tikish jarayonida ignani gazlamadan o'tkazish uchun angishvona kerak bo'ladi. U barmoqqa igna kirishdan saqlaydi. Angishvona o'ng qo'lning o'rta barmog'iga taqiladi, uni barmoqning yo'g'onligiga qarab tanlanadi, lekin u barmoqni siqib yoki undan tushib qoladigan bo'lmasligi lozim. Ishlash uchun uch xil qaychilar: uchi ingichka kichkina qaychi – gazlamadagi ipni qirqish va tortib tashlash uchun, uchi qayirilgan o'rtacha kattalikdagi qaychi – kashta tikayotganda ip uchini qirqish uchun; katta qaychi –

gazlama va kalava iplarni qirqish uchun ishlatiladi. Qaychilar yaxshi charxlangan, tig'larining uchi to'la yopiladigan bo'lishi kerak. Santimetr tasma tikish ishlarida buyum o'lchamlarini aniqlash, gazlamaga bezakni rejalash, kashta tikish ishlarini bajarishda foydalaniladi. Uchli dukcha (suyakdan, yog'ochdan yoki plastmassadan tayyorlanadi) oq tekis chokli kashta tikishda teshikchalar hosil qilish uchun ishlatiladi (1-rasm). Dukcha diametri taxminan 5 mm, uzunligi 6-8 sm bo'lishi lozim.



1-rasm. Uchli dukcha.

Gardishlar gazlamani tarang tortib turish va deformatsiyalanishdan saqlash uchun ishlatiladi (2-rasm).



2-rasm. Gardishlar.

Gardishlar to'g'ri burchakli yoki doira shaklida bo'ladi. Doira shaklidagi yog'och gardish juda qulay. U diametri 20-40 smli ikkita gardishdan iborat bo'lib, bir-birini ichiga tushib turadi. Hozirgi vaqtda turli-tuman gardishlar mavjud bo'lib, ularga gazlamani kiydirishda maxsus burama joyidan foydalanish mumkin, ya'ni gardish buramasini bo'shatib, katta va kichik gardishlar ajratib olinadi, kichik gardishga gazlama tortilib, katta gardishga kiydiriladi va burama mahkamlanib qo'yiladi[3].

Ularning har biri oddiy ko'ringani bilan, amalda ijod jarayonining muhim a'zosi hisoblanadi. Kashtachilikda qo'llaniladigan ignalar kashtaning yuragi hisoblanadi. Ular shakl va vazifasiga qarab turlicha bo'ladi: ingichka "angishvona" dan tortib, to'qimachilikda ishlatiladigan yo'g'on "cho'p igna" largacha. Ularning uchining o'tkirligi, uzunligi, teshigi va rangi bularning barchasi kashtaning tabiiy ritmi va silliq bajarilishiga ta'sir qiladi. Kashta tikish san'atida ignaning cho'zinchoq yoki kalta bo'lishi ham o'ta muhim: Kalta igna - mayda, nozik tikuvlar uchun, uzoq igna - uzun tutamlarda, keng naqshlarda ishlatiladi. Ba'zan hunarmandning qo'li ignaga emas, igna hunarmand qo'liga moslashadi. Naqshlar esa shu uyg'unlikdan tug'iladi.

Kashta tikishda ip tanlash jarayoni esa butun boshli ranglar simfoniyasidir. Ipakning jilosi, junning yumshoqligi, paxtaning qulayligi har biri o'ziga xos vazifaga ega. Nemis olimi, rangshunos Gyote o'zining ranglar nazariyasi nomli risolasida ta'kidlaganidek: Sariq rang

ko'zni quvontirib, yurakni biroz kengaytirsada, uni ko'rganda inson kayfiyatini ko'tariladi, ruhi tetik bo'ladi. Shunday ekan, kashtachilikdagi rang-barang iplarning uyg'unligi naqshning kayfiyatini belgilaydi: ipak iplar naqshga charaqlovchi jilo beradi, jun iplar matoga sokin, yumshoq nafosat bag'ishlaydi, paxta iplar esa klassik va mustahkam tikuvlar uchun xizmat qiladi. Shu bois kashtachilikda ip tanlash oddiy jarayon emas u ijodning yuragi hisoblanadi. Har bir ipning o'z "ovozi" bor: biri shivirlaydi, biri kuylaydi, yana biri naqshga jo'shqinlik olib kiradi. Usta kashtachi esa bu "ovozlar"ni birlashtirib, mato yuzida ranglar orkestrini yaratadi.

Kashta tikish jarayonida gazlama va ipning o'zaro mutanosibligi ham muhim. Juda qalin matoga nozik ip ishlatilsa, ip sinadi, juda yupqa matoga yo'g'on ip solinsa, gazlama taranglashib yirtilishi mumkin. Shu bois kashtachi avval gazlamani "sinaydi", keyin ipni "tinglaydi", shundan keyin esa ijodiy kompozitsiyasini boshlaydi. Shu tariqa oddiy ko'ringan igna, ip, mato va ranglar birlashib, inson qo'li, sabri va didi bilan uyg'unlashganda kashtaning badiiy mo'jizasi paydo bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlarga xulosa qiladigan bo'lsak, kashtachilik san'ati O'rta Osiyoda, xususan, O'zbekistonda miloddan avvalgi davrlardan boshlab shakllangan va asrlar davomida ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va estetik omillarning ta'siri ostida izchil rivojlangan badiiy-amaliy faoliyatdir. Arxeologik topilmalar va adabiy manbalar kashtaning dastlabki izlari qadimiy amaliy-dekorativ an'analardan kelib chiqqanini ko'rsatadi. Uning dastlabki maqsadi amaliy bo'lishi bilan birga, marosimiy hamda ramziy funktsiyalarni ham o'z ichiga olgan.

O'rta asrlarda Ipak yo'li savdosi, madaniy almashinuv va saroy san'ati ta'sirida kashtachilik yangi texnik va badiiy uslublarni egalladi va naqshlar ham murakkablashdi, materiallar sifati yaxshilandi va mahalliy maktablar (Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo va Surxondaryo) tomonidan o'ziga xoslik vujudga keldi. Mustaqillik davrida nafaqat saqlash, balki qayta tiklash va modernizatsiya jarayonlari boshlanib, an'anaviy naqsh va texnikalar zamonaviy dizayn va bozor talabi bilan uyg'unlashdi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek kashtachiligining tarixiy merosi faqat estetik ob'ekt emas, balki jamiyatning madaniy xotirasi va ijtimoiy identifikatsiyasidir. Kelajak tadqiqotlari uchun arxiv va muzey fondlari ma'lumotlarini tizimli ravishda qamrab olish, an'anaviy hunarmandlar bilan etnografik intervyular o'tkazish hamda texnik uslublarning kompozitsion evolyutsiyasini xronologik jihatdan batafsil tahlil qilish tavsiya etiladi. Bu esa kashtachilikning tarixiy davrlar bo'yicha o'sishini aniqroq yoritishga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR:

1.Z. Mamaxonova, D.O'rmonova "O'zbek milliy kashtachilik san'atining o'ziga xos xususiyatlari" //ResearchBip –2023. - T.2. №. 14. – C. 247-251.

2.<https://oyina.uz/>

3.Q.M.Abdullayeva, M.A.Maxsumova, M.X.Rahimjonova “Gazlamaga badiiy shlov berish” O’quv qo’llanma. Tortinchi nashr. Cho’lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2016

5.Bohodirovna k. D. Tasviriy san’at va falsafa o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik hamda ulardagi estetik tushunchalarning insoniyat madaniyatiga ta’siri //Научный Фокус. – 2024. – Т. 2. – №. 19. – С. 356-358.

6. Sherjonov S. Et al. Economic analysis of green buildings certification systems in emerging economies //Archives for Technical Sciences. – 2025. – Т. 2. – №. 33. – С. 463-471.

7. KILIÇ ATEŞ S., BERİKBAEV A. A. Pedagogical competencies in art education and the impact of educational reforms: The case of Uzbekista //Balikesir University Journal of Social Sciences Institute. – 2025. – Т. 28. – №. 53.

8. Karshiboeva D. B. The role of composition in activation of creative abilities //Экономика и социум. – 2025. – №. 3-1 (130). – С. 152-156.